

**DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MODERNIZM BILAN BOG'LIQ
TUSHUNCHALAR TASNIFI**

Uralova Gulhayo Bahodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

"O'zbek filologiyasi" fakulteti "Adabiyotshunoslik"

yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola dunyo adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri-modernizm tushunchasining paydo bo'lishi, uning takomili hamda modernizm bilan bog'liq tushunchalar tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: modernistik san'at, ekspressionizm, futurizm, jamoaviy ongsizlik.

Аннотация: В статье рассматривается одна из актуальных проблем мировой литературы-возникновению понятия модернизма, его совершенствованию, а также понятий связанных с модернизмом.

Ключевые слова: Модернистическое искусство, экспрессионизм, футуризм, коллективное бессознательность.

Modernizm tushunchasi zamonaviy xarakterga ega. Adabiy tanqid, falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, arxitektura, musiqa, tasviriy san'atda mazkur tushunchani tasniflashga urinishlar bo'lgan, shuningdek, har bir fan modernizm va uning zamon doirasini o'ziga xos tarzda belgilagan. Uning negizida uslub, mazmun, shakliy izlanishlar yetakchilik qiladi. Modernizm barcha an'anaviy qarashlarni keskin inkor qilib, yangi an'ana yaratishga soslangan murakkab falsafi-estetik hodisa hisoblanadi. Modernizm haqida professor D. Quronov tayyorlagan lug'atda shunday deyiladi: "MODERNIZM" (fr. Modern-eng yangi, zamonaviy)-XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. {1}

Modernizm F. Nitshe, Z. Freyd, K. Yung kabi faylasuflarning qarashlarida o'z ifodasini topgan. Modernizmning yirik namoyondalari sifatida J. Joys, G. Stayn, A. Kamyu, T. Mann, F. Kafka, L. Borxes, G. Markes, Dostoyevskiy sinari yozuvchilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Modernizmning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, obyektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi "ekspressionizm"

ustuvorlik qiladi. Modernizm asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi “futurizm” turadi. {2} Modernizm XX asr boshlarida dastlab tasviriylashtirish san’atda, so‘ng adabiyotda vujudga kelgan san’at yo‘nalishi hisoblanadi. Modernizmning aniq paydo bo‘lish vaqtini turlichalashtirishga ko‘rsatishadi. Uning ijodkor badiiy tafakkur tadrijiga ta’siri II jahon urushidan keyin kuchayib brogan. Chunki insoniyat tafakkur tadrijida urush fojealari, uning oqibatlari bor dahshati bilan namoyon bo‘ladi. Natijada u bu dunyoni tadbirlar bilan tuzatib bo‘lmaydi deb butun e’tiborni botingga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo‘la oladi, degan qarash modernizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi, deyiladi. {3}

Inson psixologiyasiga “jamoaviy ongsizlik” tushunchasini kiritgan Karl Yung modernistik san’at mohiyatida ruhiy xastalikni ko‘radi. U bunday xastalikka chalingan kishilarni ikki guruhga ajratadi: “Bular nevrotiklar va shizofreniklar. Birinchi guruhga mansub (kishilar) sintetik xarakterdagi kuchli va yaxlit tuyg’uga yo‘g’rilgan suratlar chizishadi. Ikkinci guruh, aksincha, shunday suratlar chizadiki, bu suratlar ularning mualliflariga hissiyot begona ekanini ko‘rsatib turadi. Ular har qanday holatda yaxlit uyg’un tuyg’uni emas, balki, aksincha, qarama-qarshi kechinmalarni yoki ularning umuman yo‘qligini ifodalaydi. Bu suratlarning badiiy shaklida esa siniq chiziqlarda aks etgan ntanazzul, inqiroz kayfiyati ustuvorlik qiladi, bu, o‘z navbatida, ijodkorning ruhan bo‘linganini, ya’ni o‘zini boshqa odam deb fahmlashini bildiradi. Suratlar tomoshabinga yoqmaydi yoki aqlga to‘g’ri kelmaydi, tajovuzkor ruhdaligiva beo‘xshov nosamimiyligi bilan unda qo‘rqinchli taassurot qoldiradi. Picasso ana shu ruhiy (psixologik) tipga mansub”. {4} Bundan ko‘rinib turibdiki, tushkun holat, ruhiy inqiroz XX asr adabiyoti va tasviriylashtirish san’atidagi modernism yo‘nalishlarining ekspressionizm, surrealizm, “yangi roman” singari yo‘nalishlarga vosita obyekti tarzida xizmat qilgan. Modernizmning ilk paydo bo‘lish ildizlari tasviriylashtirish san’at bilan bog’liq. Rus olimi Aleksandr Genisning “XX asrning yetakchi uslubi” nomli maqolasi hamda Zigmund Freyd safdoshi Karl Yungning “Picasso” nomli essesidan modernism haqidagi savollarning ayrimlariga javob toppish mumkin. Genis modernizmning genezisi haqida shunday deydi: Tarix vaqt bilan hisoblashmaydi, biroq bizlar sonomaga nazar solmay ish yurita olmaymiz. Ortga nazar tashlar ekanmiz, modernizm tarixning qaysi pallasidan boshlanganini bilib olamiz. Londondagi ikki badiiy muzey jamoasi yaqinda

ana shunday muammoga duch keldi. Ular o‘z xazinalaridagi san’at asarlarini o‘zaro taqsimlab olishlariga to‘g’ri keldi: natijada Milliy galereyaga mumtoz tasviriy san’at asarlari, Teyt galereyasiga esa zamonaviy ijodkorlarning asarlari nasib etdi. Bu borada 1900-yil chegara chizig’i vazifasini o‘tadi. Bu chegara chizig’i har qancha bahsli va shartli bo‘lmashin, nafaqat taqvimiylar, balki mantiqiy haqiqatga yaqinligi bilan ham e’tiborni tortadi. Biz modernizmni o‘tgan asr bilan hisoblab ham tarixan, ham badiiy jihatdanadolatli ish tutgan bo‘lamiz. {5}

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda modernizm bilan bog’liq tushunchalar, uning vujudga kelish omillari va o‘zak muammmolari dunyo adabiyotshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent: Akademnashr. 2010
2. U. Hamdam. Jahon adabiyoti. Modernizm va postmodernizm. Akademnashr. 2020
3. Модернизм. Сборник. М: Искусство, 1987.
4. Yung. K.G.Pikasso. A. Otaboy tarjimasi // Jahon adabiyoti. 2001.
5. Genis A. XX asrning yetakchi uslubi // Jahon adabiyoti. 2001.